



TAXALLUSNING BADIY MATNDA PRAGMATIK XOSLANISHI

Mirzaaxmatov Maxmud Raxmatulla o'g'li,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi.

Samarqand, O'zbekiston

mirzaahmatovmahmud@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada taxallusning badiiy matndagi lingvopragmatik xususiyatlari, uning kommunikativ va uslubiy vazifalari tahlil qilinadi. Taxallusning tarixiy taraqqiyoti, onomastik birlik sifatidagi o'rni hamda badiiy matnda muallif g'oyasi va lirik subyektini ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Xususan, mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari asosida taxalluslarning pragmatik imkoniyatlari, nutq subyekti bilan munosabati hamda obraz yaratishdagi funksional xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, ayrim ijodkorlar asarlarida qo'llangan taxalluslarning lingvopoetik va pragmatik mohiyati misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: taxallus, badiiy matn, lingvopragmatika, onomastika, pragmatik xoslanish, nutq subyekti, lingvopoetika, kommunikativ vazifa, konnotativ ma'no, badiiy uslub, obraz, muallif konsepsiyasi

Аннотация: В данной статье анализируются лингвопрагматические свойства псевдонима в литературном тексте, его коммуникативные и методические функции. Освещается историческое развитие псевдонима, его роль как ономастической единицы, а также его значение в выражении авторской идеи и лирического сюжета в литературном тексте. В частности, на примерах классической и современной узбекской литературы научно обосновываются прагматические возможности псевдонимов, их связь с субъектом речи и функциональные свойства в создании образа. Также на примерах анализируется лингвопоэтическая и прагматическая сущность псевдонимов, используемых в произведениях некоторых авторов.



Ключевые слова: псевдоним, литературный текст, лингвопрагматика, ономастика, прагматическая атрибуция, субъект речи, лингвопоэтика, коммуникативная задача, коннотативное значение, художественный стиль, образ, авторское понятие

Abstract: This article analyzes the linguopragmatic properties of the pseudonym in the literary text, its communicative and methodological functions. The historical development of the pseudonym, its role as an onomastic unit, and its importance in expressing the author's idea and lyrical subject in the literary text are highlighted. In particular, the pragmatic possibilities of pseudonyms, their relationship with the subject of speech, and their functional properties in creating an image are scientifically substantiated based on examples of classical and modern Uzbek literature. Also, the linguopoetic and pragmatic essence of pseudonyms used in the works of some creators is analyzed using examples.

Keywords: pseudonym, literary text, linguopragmatics, onomastics, pragmatic attribution, subject of speech, linguopoetics, communicative task, connotative meaning, artistic style, image, author's concept

Kirish

Taxallus badiiy matnda o'ziga xos pragmatik vazifa bajaradi. Matn yaratuvchisi taxallusga o'zgacha yuk yuklaydi. Taxallus mumtoz adabiyotimizda ijodkorning ismi sharifiga va tug'lgan yoki yashash manziliga ishora qilsa, bugungi kunda tamomila boshqa pragmatik vazifalarni bajarmoqda. Lingvisik tadqiqotlarda taxalluslar tilshunoslikning nomshunoslik aspektida onomastik birlik sifatida o'rganilganligi xususida ishimizning oldingi o'rinlarida bayon qildik. Ammo uning pragmatik jihatlarini, badiiy matndagi roli, nutq strukturasiidagi o'rni, kommunikativlikka munosabati bilan bog'liq jihatlarini tadqiq qilinmagan.

Taxallus (Arabcha - qutulish, xalos bo'lish) - biror ijodkor (shoir, yozuvchi, olim va shu kabi) yoki siyosiy arboblarning o'zi uchun tanlab olgan ikkinchi nomi. Har bir muallif Taxallusni muayyan maqsadlarni ko'zda tutgan holda qo'llaydi. Masalan, omma o'rtasida o'z ijodini ta'kidlab ko'rsatish, o'z ism-familiyasidan qoniqmaslik, muayyan xavf-xatar, taxdiddan qochish, yashirinish va boshqalar.



Sharq san'ati va adabiyoti namoyandalari, katta olimlari o'zlariga turli narsalarga, sifat va xususiyatlarga ishora tarzida (Ulug'bek - Muhammad Tarag'ay, Navoiy, Lutfiy, Bobur, Mujrimobid, Munis, Zavqiy), mashg'uloti, kasbiga nisbatan (Gulxaniy, Charxiy), tug'ilgan yoki yashagan joyiga nisbatan (Buxoriy, Koshg'ariy, Marg'inoniy, Nasafiy, Taroziy, Xorazmiy, Xo'jandiy, Chustiy, Shoshiy, Yugnakiy, Yassaviy), yashash tarzi yoki qismatiga ishora sifatida (Gadoiy, G'aribiy, uzlat, Muqimiy, Furqat) va boshqa omillarga karab Taxallus olganlar yoki tanlaganlar. Sharqda ham, G'arbda ham ko'pchilik ijodkorlar faqat Taxallusi bilan mashhur bo'lishgan. Masalan, Beruniy - Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad, Navoiy - G'iyosiddin o'g'li Alisher, Muqimiy - Muhammad Aminxo'ja o'g'li, Oybek - Muso Toshmuhammad o'g'li, Yashin - Komil Nu'monov, Chustiy - Nabixon Xo'jaev; Stendal - Anri Mari Beyl, Jorj Sand - Avrora Dyupen va boshqalar. Ba'zi shoirlar birdan ortiq taxallus bilan (Navoiy - Foniy; Mujrim - Obid; Nodir- Uzlat - Mahjur; Nodira - Maknuna - Komila kabi), ba'zan bir necha shoir bir taxallus bilan («Navoiy» Taxallusli 10 ga yaqin shoir bo'lgan) ijod qilganlar. Sharq mumtoz adabiyotining deyarli barcha namoyandalari, ko'pchilik olimlar va ba'zi siyosiy arboblarning ma'lum taxallusga ega bo'lishgan. Taxallus qo'llashning adabiyotshunoslikda ahamiyati katta: bayoz, devon, majmua kabi qo'lyozma manbalar matnlarida qo'llangan taxallus tufayli tegishli asarlarning mualliflari anikdangan. Navoiy taxallusning shu ma'nodagi ahamiyatini «Lison ut-tayr» asarida quyidagicha izdautaydi: sahna debosiyu nazm inshosidur, Kim taxallus nozimi tam/osidur. Bu kim oni birla topti imtiyoz ne varaqqim, nazm qildi avin roz. Kim bu Sa'diy yo Nizomiyning durur, yo bu Xusravning, bu Jomiyning durur. Hozirgi kunda taxallusning shoir yoki yozuvchi o'z ismi va familiyasini qo'shimchasiz qo'llagan ko'rinishi uchraydi: G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Izzat Sulton, Jamol Kamol, Usmon Azim va boshqalar.

Biz dastavval hazrat Alisher Navoiy ijodida qo'llangan, bevosita shoir shaxsini ifodalagan "Navoiy" taxallusi va uning nutq subyektiga munosabati bilan bog'liq ayrim mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz. Shoir taxallusining nutq subyektiga munosabati haqida gapirsak. Taxalluslar poetik shaxs – nutq egasini aniqlashtiruvchi nom. Shuningdek, an'anaviy poetik asarlarda qo'llangan



taxalluslarning poetik vazifa bajarishi, shoirlar ulardan poetik tasvir yaratish, obrazlilikni, badiiylikni ta'minlashda keng foydalanishganligini ham ta'kidlash zarur bo'ladi. Shoirlar she'riy jumla strukturasidan o'rin olgan onomastik birlik – taxalluslarning ikki turidan keng foydalanishadi: biri shoirning o'ziga o'zi murojaati (o'ziga “sen” deb murojaat qilishi), ikkinchisi esa o'zidan begonalashtirilgan ko'rinishi. 1) taxallus – onomastik birlik – o'ziga o'zi murojaat. Chek, Navoiy, nola, ko'z may bersunu bag'rim kabob, Chun bo'lur ul oy xayoli bizga mehmon har kecha (G'S 530). 2) taxallus – nom – begona, uchinchi bir shaxs: Navoiy gulshanining nargisi nujum o'lg'ay, Ko'z uchidin anga qilsang hisob vaqti nigoh (G'S 521). Shubhasiz, taxallus mazmun mohiyati bilan shoir “men”ini ifodalashga xizmat qilgan, ammo u she'rdagi shunchaki shoir “men”i emas, balki shoir tomonidan badiiy ishlov berilgan lirik “men”. Shunisi e'tiborliki, Alisher Navoiy nutq egasi sifatida g'azal maqtasida o'z shaxsini taxallus yordamida ochiqlar ekan, hech qachon o'zini “men” deb ko'rsatmaydi (“men Navoiyman” demaydi). Shoir o'ziga taxallusi orqali murojaat qiladi, ikkinchi shaxsga, ya'ni suhbatdoshiga murojaat qilganday, o'zini “sen” yoki “u” deb ataydi (Bu esa o'quvchiga uni nutq egasi sifatida emas, balki chetdan turib kuzatuvchi shaxs illyuziyasini, ya'ni poetik shaxs sifatida tasavvur qilishiga imkonini beradi). She'riy jumla tarkibidagi onomastik birlik – taxallus uning shaxsini ochiqlaydigan bosh marker sanaladi. Masalan: Navoiy telbarab to ul pariy ko'yiga yuzlanmish, Eshiturmen fig'on, lekin hadisni anglamaydurmen (G'S 452).

Ma'lumki, Sharq she'riyatining g'azalnavislik an'anasiga muvofiq har bir shoir g'azal oxirida – maqtasida o'z shaxsini qayd qilish yoki unga ishora qilish, o'z shaxsini ta'kidlash uchun taxallus qo'llaydi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, taxalluslar tarixan she'r muallifini ko'rsatib turuvchi o'ziga xos imzo, tamg'a.[50;12-b] Shu sababli Alisher Navoiy o'zini ta'kidlash, shaxsini ko'rsatish uchun maqta baytda o'zida shoir shaxsini mujassamlashtirgan Navoiy taxallusini qo'llaydi. Shoir aksariyat hollarda o'ziga o'zi “Ey Navoiy” deb murojaat qiladi. Nutq egasi va nutq subyektining o'zaro hamkorligi nutq yaratish jarayonini belgilab beruvchi muhim omil sanaladi, rangorang nutq turlari, nutq janrlari va funksional uslublarning yuzaga



kelishini belgilab beradi. Navoiy taxallusi shunchaki nutq egasi emas balki she'riy matnning tarkibiy qismidir. G'azallarda nutq egasi – Navoiy ta'allusi grammatik jihatdan ikkinchi shaxs – sen, uchinchi shaxs – u ma'nosiga ega. Shoir taxallusining ikkinchi shaxsdagi ko'rinishi mazmunan o'ziga o'zi murojaat (avtokommunikatsiya), ba'zan umumiy ma'noda qo'llangan. Bu poetik usul o'ziga yaqin deb bilan barcha narsa va predmetlarga qarata qarata qo'llashga imkon yaratgan. Shoirning poetik murojaatlari mazmunan kitobxon tasavvur qila oladigan obyektlarni qamrab ola olgan. G'azallar matnida qo'llangan ayrim murojaat shakllarining kommunikativ xususiyati nafaqat shoir, balki undan boshqa shaxslarga – tashqi adresatlarga murojaati ma'nosi mavjud bo'lib, bu kommunikativ orientatsiyaning ko'p qirraligini ifodalaydi. Bu – avtokommunikatsiya. Lirik qahramon birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxslarda erkin Navoiyga murojaat qiladi. Birinchi shaxsda o'z hissiyotlari haqida, ikkinchi shaxsda o'ziga o'zi murojaatlari bayon qilingan bo'lsa, uchinchi shaxsda o'zining lirik holati haqida axborot berishni ko'zlovchi lirik jummalardan tashkil topgan.

Adabiyotchilarimiz muntazam ravishda taxalluslar tarixi, qanday yozilishi haqida ilmiy bahslashi kelishgani masala doimiy ravishda olimlar etiboridaligidan dalolat beradi. Masalan, Abdurahmon Pirimqulov “Muhiy emas, Muhiy?” maqolasiga etibor qaratsak: “Keyingi yillarda tadqiqotchilar tomonidan XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida “toj ush-shuaro”, “shohi shoiron” deya e'zozlangan zullisonayn shoir, muarrix va xattot Muhiddin Muhammad Rizo oxund o'g'li

Muhyi Xo'qandiyning adabiy taxallusini “Muhiy” shaklida yozish urfga aylanmoqda. Bu urf, meningcha, adabiyotshunos N.Zohidovning “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali (1994 yil 3-son)da e'lon qilgan maqolasidan boshlangan. Bu taxallus professor Sh.Yusupov maqolalarida ham “Muhiy” shaklida yozilgan. Taxallusning shunday shaklda yozilishini isbotlashga uringan mualliflar ham bor. Jumladan, Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi Ahadxon Muhammadiyev “Muhiymi yoki Muhiy?» nomli maqolasi (“Til va adabiyot ta'limi” jurnali, 2005 yil 5-son)da shu paytgacha ishlatib kelingan “Muhiy”ni negadir xato hisoblaydi va uni “Muhiy” deb yozish tarafdori ekanini, bu hodisa arab tili qoidalariga ham mos



tushishini isbotlashga urinadi. Unutmaslik lozimki, arab yoki fors tilidagi nom yoxud atamalar o'zbek tiliga o'zlashganda, shu til me'yorlariga ko'proq amal qiladi. Boz ustiga o'zagi "h" bilan tugaydigan taxalluslar turkiy adabiyot tarixida juda ko'p uchraydi. Ammo ularning birortasida "-yi" qo'shimchasi mavjudligi ko'zga tashlanmaydi. Mabodo shunday hol joriy yozuvdagi nomlarda uchrasa, bilingki, u tabdilchi-noshirning juz'iy xatosidir. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da Yah'yo Sebak ismli shoirning aruzshunos olim va xattot ekanligini, bir emas, to'rt taxallus qo'llaganini, ulardan dastlabki ikkitasi "Tuffohiy" va "Fattohiy" bo'lganini yozgan. Ulug' shoir temuriyzodalardan Sulton Mas'ud mirzoning "Shohiy", shuningdek, o'z jiyani, aniqrog'i, tog'avachchasi Mir Haydarning "Sabuhiy" taxallusi bilan ijod qilganini yozgan. Tazkirada Subhiy, Ohiy, Masihiy, Salohiy, Mahviy va Volahiy kabi shoirlar haqida ham ma'lumotlar bor. Ko'rinadiki, taxallusning o'zagi "h" (umuman undosh) bilan tugasa, unga faqat "-iy" (ba'zan -viy) qo'shimchasini qo'shish tarixiy jihatdan ham to'g'ri bo'lar ekan. A.Muhammadiyev yuqorida eslangan maqolasida o'z fikrini isbotlovchi dalillardan biri sifatida "Muhyi"ni ramal bahriga mos tushishini aytib, mulohazalariga yakun yasaydi. Bizningcha, bu fikr "Muhyi"ning ramal yoki aruzning boshqa bir bahriga mos tushishini inkor qilmaydi. Agar biz ushbu maqola muallifining fikriga qo'shilsak, "Shohiy"ni "Shohyi", "Sabuhiy"ni "Sabuhyi", "Ogahiy"ni "Ogahyi" deb yozishimizga to'g'ri kelmaydimi?! Taxalluslar tarixi bilan qiziqqan, ular haqida g'oyat ko'lamli tadqiqotlar olib borgan marhum adabiyotshunos olim Toji Qorayev biror o'rinda undosh bilan, xususan "h" bilan tugagan adabiy unvonlarga "-yi" qo'shimchasini qo'shmaydi. U kishi bir necha taxalluslar ichida ko'pchilikka noma'lum "Muvashshahiy" nomini ham tilga oladi. "Muhyi"ni "Muhyi" shaklida yozishni tavsiya etuvchi olimlar shoirning asl ismini "Muhyiddin" tariqasida yozadigan bo'lishdi. Xo'sh, ularga "Muhiddin"ning nimasi noma'qul tuyuldi ekan?! Xullas, "Muhyi"ni o'zgartirishga hech qanday asos ham, ehtiyoj ham yo'q.[68;3-b]

Taxalluslar, odatda, ijodkorlar tomonidan o'z ijodini ta'kidlab ko'rsatish, o'z ism-familiyasidan qoniqmaslik yoki biror xavf-xatardan, tahlikadan qochish



maqsadida qo'llaniladi. Bundan tashqari, uni xalq to'qib qo'ymaydi (xalq qo'ysa, laqab bo'ladi), muallifning o'zi tanlaydi.

Yozuvchi Xoliyor Safarov Abdulla Qodiriyning ellikdan ortiq taxallusi borligi haqida ma'lumot bergan: Qodiriy o'z tarjimai holida "Meni boylar, eshonlar ko'ra olmas edilar. Chunki men ularni ishchi tilidan chaqqan va sirlarini ochuvchi dushmanlari edim", deb yozadi. Shundan ko'rish mumkinki, Qodiriy dushmanlardan, tahdidlardan saqlanish uchun ham turli taxalluslardan foydalangan. 1983-yilda chop etilgan Habibulla Qodiriyning "Otam haqida" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Qodiriy "Mushtum" va keyingi yillarda turli gazeta-jurnallarda bosilgan hajviy, tanqidiy maqolalarida ellikdan ortiq taxallus qo'llagan. Ularning ayrimlari ochiq (xalqqa ma'lum), ayrimlari yashirin (mustaor) imzolar bo'lgan. Habibulla Qodiriy bu taxalluslarning aksariyatini o'zi bilgan, ba'zilarini xabardor kimsalardan so'rab, ba'zilarini esa maqolalarning uslubi va mazmuniga qarab aniqlagan. Ular quyidagilar: *Julqunboy, Jirqinboy, J-boy, Ju-boy, U-boy, J, Julqunboy Sovrinboy o'g'li, Mulla Julqunboy, Julqinchitir, Dumbulboy, Julbulboy jiyani, Dumbulboy o'g'li, Dumbul devona, Dumbulnisa, Domladumbul, Jiyan, Jiyaningiz Mushtum, Kalvak Mahzum, Kalvak mahzum jiyani, Kalvak mahzum Shoshiy, Toshpo'lat, Toshpo'lat tajang, Alimov, A.Q, Boyqush, Indamas so'fi, Yo'lovchi, Kampir, Karnaychi, Kolxozchi, Gaznitchi, Lakalang mahzum, Mavlon kufur, Mushtum, Sani xudo, Telba, Ovsar, Chin do'st, Chirmanda botir, Chi chora, Shapak mahzum, Shoshiy, Shilg'ay, Bog'bon, Qaqildoq xo'ja, Matbuot arisi, Moshxo'rdachi, Shakkok, Mulla eshonboy, G'o'sxo'r, Mulla Mushfiqiy.*

Bois Qoriyev 1967-yil "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1-sonida chop etilgan "Adabiy taxalluslar haqida" maqolasida Abdulla Qodiriyning 33 ta taxallusi keltirilgan. Unda *Alimov, Julqunboy, Shoshiy adibning doimiy taxalluslari, Boyqush, Dumbulboy, Dumbulboy jiyani, Dumbuldevona, Dumbulnisa, Dumbulboy o'g'li, J-boy, Jarqinboy, Jiyan, Jiyaningiz Mushtum, Indamas So'fi, Yo'lovchi, Kalvak mahzum jiyani, Kalvak mahzum shoshiy, Kampir, Karnaychi, Kolxozchi, Lakalang mahzum, Mavlonkufur, Mulla Julqunboy, Mushtum, Ovsar, Saniyxudo, Chindo'st,*



Chirmandabotir, Chi chora, Shapaloqmahzum, Shilg'ay o'tkinchi (vaqtli), A.Q. U-boy esa qisqartma taxalluslar sirasiga kiritilgan. [94;12-b]

Adabiyotshunos olim Esong'ali Ravshanov "Cho'lpon" maqolasida shunday deydi: "sharq shoirlari "taxallus", qozoqlarda "burkanchik, laqab ot", ruslar "pseudonim" deydigan, turli xalqlarda turlicha ataladigan adabiy atama bor. Gap otda emas, zotda, deganlariday, mazkur atamaning kelib chiqish sabablari va tarixi uzoq hamda bahstalab. Bahstalabligi boisidan ham u qiziq. Sharqda she'r yozish nimani anglatadi? Bu o'zni qadrlashni, o'zlikni anglashni bildiradi. Nazmda mahorat cho'qqisini zabt etib, muxlislar qalbida hayrat va zavq uyg'otgan shoirgina taxallusga erishadi. Shoir erishgan taxallus uning bir umrlik hamrohi, hamrohigina emas, o'zligiga aylanadi...O'zbek shoiri Cho'lponni o'qiganimda o'sha chaqmoq shu'lasini ko'z oldimga keltiraman. U nega o'ziga "Cho'lpon" degan taxallus tanladi ekan, deb qayta-qayta o'zimga savol beraman. O'zga taxallus qo'llaganida, balki uni qurshab kelayotgan zulmatdan omon qolarmidi, deb o'ylab qolaman. Erta sahar payti ko'kda paydo bo'ladigan yorug' yulduzni "Cho'lpon" deyishadi. Afsuski, uning umri qisqa. Bor-yo'g'i ikki-uch soatgina osmonda shu'la sohib, tezda so'nadi. "Cho'lpon yulduz hali chiqmagan edi" deganimizda, tun pardasi ko'tarilmagan erta saharini ta'riflaymiz. Cho'lpon shoirning umri ham o'sha tong yulduziday qisqa bo'ldi. U o'zining dastlabki she'rlarini "Qalandar" ,"Andijonlik" kabi taxalluslar ostida e'lon qilib yurib, nihoyat, mana shu "Cho'lpon"ga to'xtalganida nelarni o'yladi ekan?"

Yozuvchi Erkin A'zam «-OV», «-OV»... «-VICH», «-VICH» maqolasida o'z taxallusini shunday izohlaydi: "...Hali sho'ro zamoni edi, moskvalik bir olim do'stim «Nega sen A'zam-ovsan?» deb qoldi. Hayron bo'ldim: «Familiyam shunaqa». «Iya, sizlarda ham «-ov» qo'shimchasi bormi? Ruschasiga ekan-da...» Arabcha-o'zbekcha ismga tirkalgan bu qo'shimchani bema'ni, beo'xshovligini ilk bor o'shanda anglaganman. Darhaqiqat, men nega A'zam-ovman? Bundan yigirma yillar muqaddam bir kitobim nashrga tayyorlanayotganda muharrir Xurshid Davron unga «Erkin A'zam» deb imzo qo'yishni taklif qilgan, lekin men illo-billo ko'nmaganman. Istixolaga borganman-da: shoir emasman, G'afur G'ulom yoki Abdulla Qahhor



bo‘lmasam! (Bugun endi birov familiyamga «-ov» qo‘shib aytsa, ensam qotadi, hatto haqoratdek tuyuladi.) Ha, kechagi zamonda «o‘rtoq Falonchiev» atalmoq sharaf edi, jamiyatda ma’lum bir pog‘onani egallaganingizni anglatardi. Yalang Eshmat Toshmatdan ko‘ra, Eshmat Toshmatov, ayniqsa, Eshmat Toshmatovichning e’tibori, shubhasiz, baland edi. Bizning Boysunda «Falonchi «yuf» bo‘pti!», «U kishim endi «yuf»-da!» degandek hasad-havas aralash gaplar ham yurardi. Shoirimiz aytganidek, «o‘zga erur imlo bu kun». Bugun endi nomingizni istagan shaklda yozdirishingiz, o‘zgartirishingiz yoki taxallus tanlashingiz mumkin. Ana, ilk she’riga qofiya qidirib yurgan bolalar ham o‘ziga «Parvoz», «Viqor» deya taxallus qo‘yib olyapti. Zamon erkin, ixtiyori!”.

Badiiy matnda yozuvchining g‘oyasi, fikr va maqsadini amalga oshirishda, uning hayotiyliigi, obrazli-ekspressivligi birligidan kelib chiqadigan badiiyatini ta’minlashda til (til birliklari tizimi) asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, bunda leksik vositalarning ahamiyati birmuncha aktualdir. Albatta, til vositalari yuqoridagi kabi vazifalarni bajarishda o‘ziga xos uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi muqarrar. Bu bo‘yoq so‘zning emotsional, ekspressiv-ta’sirchanlik, baholash, obrazlilik kasb etishida yaqqol ko‘zga tashlanadi va ular so‘zning semantik mundarijasining tarkibiy qismi bo‘lgan konnotativ ma’no doirasida birlashadi. Leksik vositalarda aynan konnotatsiyaning mavjudligi uning dinamik xarakterini belgilaydi. Shu bois, so‘z san’atkorlari til vositalariga erkin, o‘ziga xos idrok etish hamda bayon uslubi bilan yondashib, so‘zning yangi ma’no qirralarini, uslubiy imkoniyatlarini kashf etadilar.

Yozuvchi badiiy matnda tilning tasviriy vositalaridan foydalanar ekan, u faqat tilning obrazlilik, ekspressiv-ta’sirchanligiga erishishni bosh maqsad qilib olmaydi, balki bu vositalar yordamida o‘zining badiiy niyati va g‘oyasini ularning ichki shaklida implikasiya usuli bilan ifodalaydi. Til vositalaridagi mana shu ichki yashirin mazmun tuzilishini lingvistik pragmatika o‘rganadi. Lingvistik pragmatika nutq sub’ektining ichki maqsadi bilan bog‘liq yashirin propozitsiyalarni o‘rganadi. [84;81-b]

Mashhur yozuvchi Abdulla Qaxxor asarlarida ko‘plab taxalluslarni turli pragmatik maqsadda ishlatadi. Masalan, “Sarob” romanida bosh qaxramonga Saidiy



taxallusini beradi. Saidiyning ismi Rahimjon bo'lsa ham, hamma unga Saidiy deb murojaat qiladi, hatto yozuvchning o'zi ham. Chunki, Saidiy xudbin, meshchan va shuhratparast. U millatchi va sho'ro siyosatining dushmani. Nima qilib bo'lsa ham odamlarni «bolshevizm zulmidan dod» degizishni ko'zlaydi. Boshqa davr, boshqa bir zamon bo'lganda, ehtimolki, uning qismati butunlay o'zgacha bo'lar, «ichki hayoti bilan tashqi hayoti orasidagi kundan-kun o'sib borgan qarama-qarshilik» joniga qasd qilarli darajaga yetmasdi. Saidiy badiiy ijodda katta bir muvaffaqiyatlarga erishmagan bo'lsa-da, umrining oxirlarigacha yozuv-chizuvdan o'zini cheklay olmaydi. Agar u do'sti Ehsonning «Siz o'zbek adabiyotini butun dunyo ko'radigan yuksaklikka ko'tarishda qatnashasiz. Bu faoliyatni siz sho'ro hukumatini nima mustahkamlasa, nima sotsializm qurilishiga yordam bersa, shu «mening mavzuim» deb boshlang...» degan fikrlarini qabul aylab, amalda shuni ko'rsatishga jahd etsa, hayotda ham, ijodda ham qandaydir yutuqlarni qo'lga kiritarmidi? Shubhasiz, shunday bo'lardi. Unda u - Saidiy emas, ixtiyoriy ravishda sho'ro bosqini va qirg'inlarini qo'llab-quvvatlagan ijodkorga aylanardi. Saidiyning xudbin ziyoli bo'lib shakllanishida, avvalo, oilaviy muhit (badavlat oiladan chiqqanligi), «Urfon» maktabida muallimlik qilayotgan, birinchi jahon urushi davrida asirga tushib, keyinroq ozodlikka chiqqan va Turkistonda qolib ketgan turk zobitlarining va, nihoyat, Munisxonning ham ta'siri katta bo'ldi. Yozuvchi ma'lum ma'noda asar qahramonlari boshidan kechirgan voqea-hodisalarga o'z hayoti davomida guvoh bo'lgan, yoki shunga o'xshash holatlarning ijtimoiy hayotda bo'layotganini teran anglab yetgan va bularni badiiy tadqiq etishda muvaffaqiyatga erishgan. Abdulla Qahhor o'z idealiga zid qahramon – Saidiy va uning «kichik muhiti»ni inkor qilish orqali idealiga mos voqelikni tasdiqlash yo'lidan boradi Abdulla Qahhorning o'z idealiga zid qahramonni asosiy planda tasvirlashi o'z davrida ham, keyinchalik ham turli bahslarga, biryoqlama tanqidiy qarashlarga sabab bo'ldi. (Bu haqda B.Nazarov, O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, Rahmon Qo'chqorning qator ma'lumotlari mavjud.) «Binobarin bu obraz ham muayyan g'oyaviy maqsadlarga – millatchilik mafkurasini fosh etishga xizmat etuvchi vosita emas, balki tabiiy insoniy ziddiyatlari, o'jizliklari bilan jahon adabiyotida mavjud shu



turdagi personajlar sifatida turuvchi yorqin xarakterdir” [6.30]. [7.260]. Bundan ko‘rinadiki, hayot haqiqatini aks ettirishda ijodkor uchun muayyan qolip-andozani belgilab berib bo‘lmaydi. Kimdir ijobiy qahramon vositasida, yana kimdir salbiy yoki murakkab qahramon vositasida badiiy maqsadni ifodalashi mumkin.

Romandan Saidiyning xarakterini ochuvchi o‘rinlardan misollar keltiramiz: *Rostdan ham bulardan ba‘zilari o‘qishda kuchsizlik qiladi. Partiya, komsomol yacheykasi kuchli studenglarni bularga biriktirardi. Saidiy ko‘pdan beri aytmoqchi bo‘lib, aytishdan hayiqib yurgan bir gapni bir kuni dars vaqtida kekxa, rangi zahil, lunjlari osilgan professor aytdi: - Siz universitetga munosib emassiz, - dedi u, Saidiy «to‘ngak» deb nom qo‘ygan bir yigitga, - borib ketmoningizni chopnng!.. Kimdir qarshi so‘z aytgan edi, muallim jerkib berdi: - Bu - fan. Buni dekret bilan soddalashtirib bo‘lmaydi! E’tiroz bildirgan kishining tovushi supurgi bilan urilgan arining tovushiday birdan o‘chdi. Shunda Saidiy tor oyoq kiyimini yechib tashlaganday yayradi va shu professorni yaxshi ko‘rdi. (Sarob, 43-b.)* Matnda Saidiyning baxilligi namoyon bo‘lmoqda. Ushbu matnda Saidiyning xudbinligi namoyon bo‘lmoqda: *Shunday kunlarning birida Saidiy, tasodifiy ravishda o‘zining bemor yotgan opasi oldiga kirib qoldi. Opasi kuzda - yomg‘irli kunlar boshlanishi bilanoq uzil-kesil shol bo‘lib qolgan edi. U bir necha kundan beri kirib hol so‘ramagan ukasini ko‘rib ko‘ziga yosh oldi.*

- Rahimjon, endi nima qilay, xudo baxti qora qilib yaratgan ekan... bir ishga yaramasam... kelenga aytgin, kepak qizdirib bersin... Xudo omonatini tezroq olmaydi ham...

- Xo‘p, senga kepak qizdirib bersin. Sen o‘lma. Oyoqlaring tuzalsin. Ko‘z yoshi vodipsida istaganingcha kez! Nahot kepak qizdirib berishiga va shu bilan olamga bir hovuch yosh ortiqroq to‘kilishiga qarshi bo‘lsam!

Opa ukasining oldida ho‘ngrab yig‘lab yuborishdan o‘zini tiyish bilan ovora bo‘lib, qulog‘iga gap kirmadi. Saidiy eshikdan chiqishi bilanoq opasining iltimosini unutib, boqqa chiqib ketdi va havoning sovuqligi, qor uchqunlab turishiga qaramay, uzoq aylanib yurdi.(Sarob, 250-b).



Har bir nutqiy aloqa zamirida soʻzlovchi yoki yozuvchining moʻljali yotadi. Demak, yozuvchi fikrlarini kitobxonga yetkazishda oʻz oldiga maʼlum bir maqsad qoʻyadi. Shunga koʻra u tomonidan shakllantiriladigan matnda til birliklari turli lingvopragmatik vazifalarni bajarishga xoslangan boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992.
2. Муҳаммадиев Р. Аския. – Тошкент, 1970. – Б. 9.
3. Нафасов Т., Нафасов Ш.Т. Атоқли отларга хос умумий хусусиятлар // Жой номлари – халқ тили ва маъданиятининг нодир мероси. – Навоий, 1998;
4. Низамова Ш. У. Ўзбек тахаллусларининг тарихий-лисоний тадқиқи: филол. фан. фалсафа д-ри (PhD) дис автореф. -Тошкент, 2022. -49 С.